

SHARQ MUMTOZ POETIKASIDA ISTIORA NAZARIYASI

(ARASTUNING “POETIKA” ASARI MISOLIDA)

Ibragimov Jasurbek Tulkinjon o‘g‘li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu tezis sharq buyuk bir allomasi tomonidan badiiy so‘z san’ati xususida yaratilgan ilmiy risolalarda “istiora” san’ati qanday tavsiflangani to‘g‘risida so‘z yuritadi. O‘xshatish san’atlari ichida “istiora” sharq olimlari tomonidan ham alohida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: istiora, mumtoz poetika, ilmiy risola, so‘z san’ati.

Abstract: This thesis talks about how the art of "allegory" is described in the scientific treatises created by Eastern scholar on the art of artistic words. Among the arts of simile, "metaphor" has been specially recognized by Eastern scholars.

Key words: metaphor, classical poetics, scientific treatise, word art.

Аннотация: В данной диссертации говорится о том, как описывается искусство «аллегории» в научных трактатах, созданных восточными ученым об искусстве художественного слова. Среди искусств сравнения восточными учеными особое признание получила «метафора»

Ключевые слова: метафора, классическая поэтика, научный трактат, искусство слова.

Sharq mutafakkirlar yaratgan ilmiy risolalar doimo g‘arb fan-madaniyati rivoji uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu barcha sohalar bilan bir qatorda badiiy so‘z san’ati tahlilida ham yaqqol ko‘ringan. Xususan, yunon faylasufi Arastu badiiy tasvir vositalari xususida o‘zining “Poetika” asarida alohida bir bob ajratgan. Ushbu asarni poeziya to‘g‘risida yaratilgan ilk ilmiy risola. Asar tarjimonlari “Aristotelning “Poetika”sida adabiyotshunoslikka oid bo‘lgan hozirgi zamon qarashlarining hammasini ham qidiraverish to‘g‘ri emas”ligini ta’kidlab o‘tganlar [1, 3]. Demak, ushbu asar nafaqat g‘arb olimlari

tomonidan yaratilgan asarlar uchun o‘rganish obekti, balki, sharqda yaratilgan ilmiy risolalar ham unga bog‘langan holda bitilgan.

Asarning 21 – bo‘limida otlarning turlariga, shu jumladan metaforaga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Faylasuf “metafora, ya‘ni effifora - narsaga xos bo‘lмаган, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko‘chirilgan, yoinki o‘xshatilgan so‘zdir” deya tarif beradi va ularga alohida-alohida to‘xtalib o‘tadi [1, 42]. Quyida Aristotel qarashlarining ayrim jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. “Ana, mening kemam ham turibdi..” degan misolni Aristotel jinsdan turga ko‘chirishni ifodalash uchun keltirib o‘tadi va uning qarashi bo‘yicha “turibdi” so‘zi “langarda turibdi” degan ma‘noni beradi. Bunday ma‘no ko‘chishini Aristotel xususiy deya ataydi. Buning sababi shundaki, agar biror bir narsaga bog‘lab qo‘yilmagan bo‘lsa, kemaning o‘zi shunday turmaydi, ya‘ni “turish” ish-harakati faqat jinsgagina xos bo‘lib, turga ko‘chirilganda xususiy ma‘noni beradi.

2. Turdan jinsga ko‘chirilgan ma‘nosida “Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey...” jumlasini misol sifatida oladi va “minglab” so‘zi “ko‘plab” xususiy holati bo‘lgani uchun ham bu gapda u so‘zning ma‘nosi “ko‘plab” ma‘nosini beradi, deb Aristotel tushuntirib o‘tadi. Bundan Odisseyning qilgan ishlari son-sonoqsiz, ya‘ni aniq miqdori mavjud emas, shuning uchun “ko‘plab” ma‘nosini ham bu o‘rinda ma‘noviy anglab olishimiz mumkin.

3. Aristotelning turdan turga ko‘chirish ta‘rifini tasdiqlash uchun bergen misoli ikki so‘zning bir-biri o‘rnida ishlatila olish imkonini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Mana o‘sha berilgan misol: “Mis bilan jonini bo‘shatib” va “suv zarrasin charchamas mis bilan kesib”. Birinchi berilgan misolda “bo‘shatib” so‘zi “kesib” ma‘nosida kelib, undagi uslubiy bo‘yoq dorlikning oshishiga xizmat qilgan. Ikkinci misolda esa, aksincha, “kesib” so‘zi “bo‘shatib” degan ma‘noda ishlatilgan.

4. O‘xshatilgan so‘zlarni Aristotel quyidagicha ta‘riflaydi: “Men ikkinchi so‘z birinchisiga qanchalik aloqador bo‘lsa, to‘rtinchi so‘z uchinchisiga shunchalik aloqador bo‘lgan holni nazarda tutaman”. Bunday ta‘rifga faylasuf

ikkinchi so‘z o‘rniga to‘rtinchisini yoki to‘rtinchisi o‘rniga ikkinchisini ham qo‘llasa bo‘ladi, - deb qo‘sishimcha qilib keltirib o‘tadi. Faylasuf keltirgan misollar ichidan tushunarli bo‘lgan sodda va engilliri tanlab olindi. Qarilik bilan umr aloqasi shom bilan kunduz aloqasiga o‘xshatilgani uchun ba‘zi xalqlarda shomga nisbatan kunduzning “qariligi” yoki, aksincha, qarilikni “umrning shomi” deb ta‘riflash mumkin. Bu erda “kunduzning qariligi” deganda kunduz bilan kechqurunni orasida bo‘lgan muddat anglashilmoqda, ya‘ni uning na kunduz na kech emasligini tushunishimiz mumkin. Keyingi o‘xshatishimizda esa qarilikka nisbatan “umrning shomi” deb ishlatib, umrning tugab borayotganini nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin³⁴.

Arastu ko‘chimlarni mohirona ishlatishni iste‘dod belgisi sifatida qaraydi hamda yaxshi metaforalarni kashf etish uchun narsalardagi o‘xshashlikni payqay olish bilan aloqador bo‘lgan ko‘nikma va malakalarining shakllangan bo‘lishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Aristotel. Poetika (Poeziya san’ati haqida). G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti – T.: Toshkent, 1980.
- 2) Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN "BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.
- 3) Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.
- 4) Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN "BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
- 5) Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname».

³⁴ Аристотель. Поэтика (поэзия сўз санати хақида). Иззат Султон – Тошкент. Фофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. С. 42-43

Sc Аристотель. Поэтика (поэзия сўз санати ҳақида). Иззат Султон –
Тошкент. Фоғур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. С. 42-
43iences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.